

AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGI: MILLIY G'URUR VA JAHON MADANIYATIDAGI AHAMIYATI.

Fozilova Shabnam Sherali qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti. Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: shabanamfozilova193@gmail.com Telefon raqam: +998995203192;*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 5-fevraldagi qaroriga asosan nishonlanayotgan Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi tadbirlari tarixiy, madaniy va ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada Amir Temurning hayoti va merosi qisqacha ko'rib chiqilib, 2026-yilgi yubiley doirasidagi "Amir Temur oyligi", xalqaro ilmiy konferensiya, "Temur tuzuklari"ning ko'p tilli nashri, kitob-albomlar va muzey rekonstruksiyasi kabi tadbirlar batafsil yoritiladi. Tadbirlarning milliy o'zlikni mustahkamlash va jahon tamadduniga qo'shilgan hissani targ'ib etishdagi roli muhokama qilinadi. Natijada, yubiley nafaqat o'tmishga hurmat, balki kelajak avlodlar uchun ilmiy-ma'rifiy poydevor ekanligi isbotlanadi.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, 690 yillik yubiley, Temuriylar Renessansi, Prezident qarori, "Amir Temur oyligi", xalqaro ilmiy konferensiya, "Temur tuzuklari", Temuriylar muzeyi, milliy g'urur, jahon tamadduni.*

KIRISH

Amir Temur (1336–1405) nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi sifatida jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan shaxsdir. Uning tavalludining 690 yilligi 2026-yilda O'zbekistonda keng nishonlanayotgani milliy davlatchilik va madaniy merosni qayta tiklashning muhim bosqichi hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning maxsus qarori bilan tasdiqlangan tadbirlar dasturi yubileyga yangicha mazmun bag'ishlamoqda. Ushbu maqola yubiley tadbirlarining ilmiy va madaniy ahamiyatini tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Amir Temur merosi bo'yicha ilmiy adabiyotlar boy. "Temur tuzuklari" asari asosiy manba bo'lib, unda davlat boshqaruvi, adolat va harbiy strategiya tamoyillari bayon etilgan [2]. O'zbek olimlari Temuriylar davrini "Ikkinchi Uyg'onish" deb baholagan. Xalqaro miqyosda UNESCO 1996-yilda 660 yillikni nishonlagan. So'nggi yillarda mustaqil O'zbekistonda Amir Temur siymosi milliy ramz sifatida qayta o'rganilmoqda. 2026-yilgi Prezident qarori esa tadqiqotlarning yangi bosqichini boshlab berdi: "Temur tuzuklari"ning ko'p tilli nashri va nodir qo'lyozmalar albomlari kabi loyihalar adabiyotni boyitadi [3,4]. Maqola tarixiy-manba tahlili, qiyosiy-tarixiy va hujjatli usullarga asoslangan. Asosiy manbalar: Prezident qarori matni "Temur tuzuklari"[2], nodir qo'lyozmalar va rasmiy axborot manbalari. Tadbirlarning amalga oshirilishi

monitoring qilinish, 2026-yil boshidagi holat (mart-aprel) bilan oldingi yubiley (660 yillik) qiyoslangan. Statistik va mazmuniy tahlil qo'llanilgan.

ASOSIY QISM

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Shahrisabz yaqinida tug'ilgan. [4, 20-b]. 1370-yilda Movarounnahrda qudratli davlat barpo etib, poytaxti Samarqand bo'lgan Temuriylar saltanatiga asos soladi. U Movarounnahrni birlashtirib, G'arbiy CHig'atoy ulusi ustidan nazoratni qo'lga kiritgan.

Amir Temur faqat jangchi emas balki, buyuk quruvchi madaniyat homiysi ham bo'lgan. Samarqandi „dunyoning markaziga“ aylantirdi-masjidlar madrasalar, bog'lar va saroylar qurdirgan, masalan-Bibihonim masjidi, Registon maydoni. Ilm-fan, adabiyot va san'atni qo'llab quvatlagan Ibn Xaldun, Hofiz Sheroziy kabi buyuk olim va shoirlar bilan muloqotda bo'lgan. Uning davri "Temuriylar renessansi"/uyg'onish davri/ deb ataladi.

Me'morchilik, miniatyura san'ati va ilm rivojlangan. Samarqandni jahon madaniy markaziga aylantirdi [4, 50-120-b]. Uning saltanati sharq va g'arbni bog'lagan ulkan imperiya edi. 2026-yilda Prezidentning 5-fevraldagi qaroriga ko'ra, aprel oyi har yili "Amir Temur oyligi" deb e'lon qilindi. Ta'lim muassasalari, harbiy qismlar va mahallalarda temurshunos olimlar ishtirokida uchrashuvlar o'tkazilmoqda. 2030-yilgacha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan bo'lib, unda quyidagilar nazarda tutilgan [1, 7-9-b]:

- 9-10-aprel kunlari Islom sivilizatsiyasi markazida "Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o'rni va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya;

- "Temur tuzuklari"ning ilmiy-izohli nashri fors, arab, xitoy, ingliz, fransuz, ispan va rus tillarida [2, 10-50-b];

- "Temuriylar davrining 100 nodir qo'lyozmasi" va "Temuriylar davrining 100 nodir durdonasi" kitob-albomlarining yaratilishi;

- Temuriylar tarixi davlat muzeyining rekonstruksiya qilinishi va raqamlashtirilishi;

- Pochta markalari, konvertlar, taqvimlar va esdalik tangalar chiqarilishi;

- Xorijiy manbalardan asl yozma nusxalar olib kelinishi va Yevropada tarixiy filmlar namoyishi;

- 2026-yil 1-martdan "Buyuk temuriylar" atamasini xalqaro ilmiy istiloh sifatida joriy etish bo'yicha xorijiy taqdimotlar.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Bugungi kunda O'zbekistonda Amir Temur milliy g'urur ramzi sifatida hurmat qilinadi. Uning haykallari Toshkent, Shahrisabz va boshqa shaharlarda turibdi. Yubiley tadbirlari milliy g'ururni oshirish bilan birga, Temuriylar merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilmoqda. Konferensiya va nashrlar ilmiy hamkorlikni kuchaytiradi, muzey rekonstruksiya esa turizm va ta'limni rivojlantiradi. Natijada, 690 yillik nafaqat tantana, balki ilmiy-ma'rifiy loyihalar tizimi bo'lib, O'zbekistonning jahon

tamaddunidagi o'rnini mustahkamlaydi. Oldingi 660 yillik bilan qiyoslaganda, hozirgi tadbirlar yanada tizimli va uzoq muddatli (2030-yilgacha) ekanligi ko'rinadi.

Xulosa: Amir Temur tavalludining 690 yilligi O'zbekiston uchun milliy o'zlik va madaniy merosni saqlashning muhim ramzi bo'di. Prezident qarori asosidagi tadbirlar kelajak avlodlarga temir irodali, adolatli va ilmparvar ajdod merosini yetkazishga xizmat qilmoqda.

[Temurtuzuklari, Toshkent: Sharq, 2020, betlar 100-140]. Sohibqironning ruhi abadiy yashasin va uning yo'li millatimiz uchun abadiy ilhom manbai bo'lib qolsin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2026-yil 5-fevral, PQ-46-son [lex.uz, sahifalar 1-9 va ilovalar].
2. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 2020 [betlar 10-50 va 100-140].
3. Ahmedov B. Temuriylar davri tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018 [betlar 50-120].
4. Azamatov A. Sohibqiron Amir Temur. – Toshkent: Fan, 2015 [betlar 20-80].
5. UNESCO. Decision on the 660th anniversary of Amir Timur. Paris, 1996.
6. Kun.uz. Aprel oyi "Amir Temur oyligi" deb e'lon qilindi. 2026-yil 6-fevral.
7. Xabar.uz. Amir Temur tavalludining 690 yilligi keng nishonlanadi — Prezident qarori. 2026-yil 6-fevral.
8. UzDaily. Uzbekistan Approves Plan to Celebrate the 690th Anniversary of Amir Temur's Birth. 2026-yil 7-fevral.